

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**SHAKIROV SARDOR ABDUSAMINOVICH**

**COVID -19 INFEKSIYASIDA  
BUYRAKNING PATOLOGIK ANATOMIYASI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Shakirov Sardor Abdusaminovich</b> COVID-19 infeksiyasida buyrakning patologik anatomiyasi.....	3
<b>Шакиров Сардор Абдусаминович</b> Патологическая анатомия почек при инфекции COVID-19.....	25
<b>Shakirov Sardor Abdusaminovich</b> Pathological anatomy of the kidneys in COVID-19 infection .....	49
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works.....</b>	<b>55</b>

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**SHAKIROV SARDOR ABDUSAMINOVICH**

**COVID -19 INFEKSIYASIDA  
BUYRAKNING PATOLOGIK ANATOMIYASI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tib 3179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fjsti.uz](http://www.fjsti.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Mamataliyev Avazbek Rozuvayevich**  
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Eshbayev Erkin Abduxalimovich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Yuldashev Bahrom Soberjonovich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 04/30.09.2020.tib.122.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2 uy. Tel.: (99895) 400-01-14, faks : (99873) 245-59-07)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2 uy. Tel.: (99895) 400-01-14, faks : (99873) 245-59-07 e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Sidikov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

**M.R. Ashurova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Sh.I.Ro‘ziev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) jahon aholisi o'rtasida koronavirus infeksiyasi kasalliklari sonining jadal o'sishi haqida ogohlantirib, jami 28,8% ni tashkil etadi, shuningdek aksariyat holatda to'satdan o'tkir yoki surunkali buyrak yetishmovchiligi ko'rinishida namoyon bo'ladi<sup>1</sup>. Shuning uchun ushbu kasallikni o'z vaqtida aniqlash va davolash hozirgi paytda dolzarb muammo hisoblanadi. Bugungi kunda COVID-19 zararlanishidan keyingi davrda yuzaga keladigan asoratlar aynan qon tomirlariga boy bo'lgan a'zolarida, shu jumladan buyrak to'qimalaridagi og'ir patomorfologik o'zgarishlarda yuzaga kelmoqda. Shu bois, kasallikning har bir shaklida kasallikning jadalligi, davomiyligi va o'ziga xos patomorfologik o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada aniqlash zamonaviy tibbiyotning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi (JSST).

Jahonda COVID-19da buyraklarning patomorfologik xususiyatlarini yaxshilash uchun bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, SARS-CoV-2ning S-oqsili o'zgaruvchan 2-angiotenzin ferment (APF2)ga o'xshash va uning affinligi oldingi virus SARS-CoV dan 10 barobar kuchli, bu yuqori darajadagi yuquvchanlikni ta'minlaydi<sup>2</sup>. APF2- retseptor ekspressiyasi asosan respirator epiteliy, alveolotsitlar, alveolyar monotsitlar, tomirlar endoteliysi, oshqozon-ichak epiteliysi, peshob yo'llari epiteliysi, makrofaglar va hatto boshqa hujayralarda ham aniqlanadi. SARS-CoV-2 yuqori nafas yo'llari epiteliysiga faol replikatsiyalanish xususiyatiga ega<sup>3</sup>. Shuning uchun COVID-19 kechishi va avj olishi og'ir o'tkir respirator sindrom (OO'RS) va SARS-CoV-2 qo'zg'atadi, uning kuchli replikatsiyalanishi viremiya, immun buzilishlar, gipoksiyaga sababchi bo'lib, bir qator a'zolar, ya'ni yurak, buyrak, oshqozon-ichak yo'li va boshqa a'zolarini shikastlaydi<sup>4</sup>.

ACE2 retseptorlarining yuqori darajada ekspressiyalanishi asosan buyraklarda aniqlanadi. Shu sababli, buyrak kasalliklarida COVID-19 infeksiyasi xavf omili bo'lib, kasallikning klinik kechishini kuchaytiradi.

SARS-CoV-2 virusi keltirib chiqaradigan buyrak shikastlanishining patogenezi multifaktorlikdir. SARS-CoV-2 virusi buyraklarga bevosita sitopatik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buni polimeraza zanjiri reaksiyasi orqali COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning siydikida koronavirus parchalari aniqlangani tasdiqlaydi<sup>5</sup>. Shu munosabat bilan, COVID-19 infeksiyasidan keyingi davrda buyrak to'qimalarida yuzaga keladigan COVIDdan keyingi asoratlar o'rganilgan bo'lsa-da, morfologik va morfometrik parametrlarning qiyosiy tahlilini baholashga qaratilgan tadqiqotlar alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, sog'liqni saqlash tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, turli infeksiyon kasalliklarni samarali tashxislash, davolash va oldini olish sifatini oshirishga qaratilgan keng

---

<sup>1</sup> ВОЗ 2021.

<sup>2</sup> Дин У, Ван Х, Шен Н и др.: отчет из Китая. J Pathol 2003;200:282-9

<sup>3</sup> Цинзерлинг В.А., Вашукова М.А., Васильева М.В., и др.; Рыбакова М.Г., Карев в.е., Кузнецова И.А. 2020 г.

<sup>4</sup> Yang R., Cui Z., Zhao J., Zhao M.H. Clin. Immunol. 2009. V.133. no2. P. 245-250

<sup>5</sup> Bi Q, Vu Y, Mei S, et al 2021

qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»<sup>6</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, COVID-19 infeksiyasidan keyingi davrda buyrak kasalliklarning uchrash darajasi patomorfologik xususiyatlarini baholashni takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 12 noyabrda PF 6110-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2017 yil 20 iyundagi PQ-3071-son «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 2 oktyabrda PQ-4847-son «Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi taxlili bo'yicha koronavirus infeksiyasi ayrim xolatlarda o'tkir buyrak yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. COVID-19da letal ko'rsatkich 85 yoshdan oshganlarda (10%-27%), 65-84 yoshdagilarda (3%-11%), 55-64 yoshdagilarda (1%-3%), 20-54 yoshdan oshgan odamlar orasida esa kamroq kuzatilgan <sup>7</sup>.

Ammo, COVID-19 da o'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligini yuzaga kelishidagi bog'liqlik ta'siri kam o'rganilgan. Tadqiqot ishimizda tahlil qilgan adabiyotlar COVID-19 infeksiyasida buyrak kasalliklarini yoshga va jinsga doir bog'liqligini rivojlanishi va turli buyrak asoratlari o'rtasidagi korrelyativ bog'liqlik aks ettirilgan patomorfologik tadqiqotlar o'rganilmagan.

Mamlakatimizda koronovarius infeksiyasining patologik anatomiyasi bo'yicha bir qancha ilmiy amaliy ishlar [R.I.Israilov,B.A.Magrupov, X.Z.Tursunov,2021;E .A. Eshbaev,D.Sh.Allaberganov, 2021; R.I.Israilov, E.A. Eshbaevlar,2022] qilingan, koronavirus infeksiyasida ichki a'zolardan jigar,

---

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

<sup>7</sup> Bassetti M. The Novel Chinese Coronavirus 2020.

limfa tugunlari, buyrak usti bezi va oshqozon osti bezidagi morfologik va gistokimyoviy o'zgarishlarni talqin qilishgan. Shu bilan birga COVID-19 da endokrin a'zolarining morfologik o'zgarishlari bo'yicha ham Respublika patologik anatomiya markazida 2021-2022 yillarda o'rganishlar olib borilgan. Lekin ushbu olingan ilmiy amaliy natijalar bo'yicha O'zbekistonda buyrak to'qimasining COVID-19 infeksiyasida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar talqini to'la to'kis yoritilmaganligi bilan muammoning dolzarbligi hanuzgacha davom yetmoqda. Koronavirus infeksiyalarida buyraklarni shikastlanishi makro-mikroskopik va ultramikroskopik o'zgarishlari yosh, jins, etnik omil bo'yicha hozirgacha to'liq o'rganilmagan. Shu sababdan ushbu ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy ishlar rejalari bilan bog'liqligi.** Ilmiy ish mavzusi ADTI ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga kiradi: "Inson va tajriba hayvonlar organizmi hayot faoliyati ko'rsatkichlarining har xil patologik omillar ta'siridagi funksional, metabolik va struktur o'zgarishlarning o'ziga xosligi va ularni korreksiyalash yo'llari, hamda ekspert baholashning yangi imkoniyatlari" [Davlat raqami:005.01.1500216].

**Tadqiqot maqsadi** SARS-CoV-2 virusi ta'sirida buyrak po'stloq qavat ko'ptokchalar, oraliq to'qima va mag'iz qavati peritubulyar qon tomirlari, kanalchalar epiteliysida rivojlanadigan patomorfologik o'zgarishlarning morfogenezi va xarakterli struktur belgilarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

COVID-19 dan vafot etgan bemorlarning kasallik tarixi va autopsiya protokollari ma'lumotlarini retrospektiv tahlil qilish;

COVID-19 da buyrak shikastlanishining makroskopik belgilarini o'rganish;

COVID-19 da buyrak kanalchalarining epiteliy hujayralarida morfologik o'zgarishlarni aniqlash;

COVID-19 da o'ziga hos buyraklardagi patomorfologik hos o'zgarishlarning rivojlanish algoritmini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida 2021 yilning iyun, iyul, avgust, sentyabr oylari davomida O'zR SSV RPAM bo'limlarida tekshiruvdan o'tgan 44-ta koronavirus infeksiyasidan vafot etganlarni kasallik tarixlari va autopsiyadagi buyrak materiallari olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqot ob'ektlari buyrak to'qimalarining biopsiya namunalari, kasallik tarixi, shuningdek peritubulyar qon tomirlarida, buyrak po'stlog'i kanalchalari epiteliysida, oraliq to'qimalarda va peritubulyar tomirlarda koronavirus infeksiyasi ta'siri ostida rivojlanayotgan patomorfologik o'zgarishlarni tahlil qilish.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqotda COVID-19 da buyrakdagi patomorfologik hususiyatlarini baholashda, klinik-anamnestik, morfologik, morfometrik ko'rsatkichlar va statistik tekshiruv usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

COVID-19 infeksiyasi glomerulonefrit kasalligi bilan birgalikda kuzatilsa, kattalashgan ola-bula buyrakning rivojlanishi, surunkali pielonefrit bilan birgalikda kuzatilsa o'choqli kortikal nekrozlarning rivojlanishi isbotlangan;

COVID-19da buyraklar yoysimon arteriyasining shikastlanishi, afferent arteriya devorida limfoid infiltratsiya, efferent arteriyasi endoteliysi proliferatsiyasi, mikrotomirlarda limfotsitar tromb paydo bo'lishi, koptokcha kapillyarlar to'rida podotsit va mezangiumning proliferatsiyasi yuz berishi isbotlangan;

COVID-19da ShIFF-musbat tuzilmalar bazal membranada va buyrak kanalchalarining oraliq moddasida ko'p miqdorda to'planib, kanalchalar epiteliysida nekrotik o'zgarishlarni keskin oshirib borishi aniqlangan.

COVID-19 infeksiyasida 40-59 yoshdagilar buyrak to'qimasi po'stloq va mag'iz qavatidagi funksional faol soxalarning shikastlanishi ko'rsatkichlari ko'payganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

COVID-19da buyraklarda rivojlanadigan morfologik va morfometrik o'zgarishlar asosida, ishlab chiqarilgan tashxislash va davolash ishlari uchun fundamental ilmiy ahamiyatga ega.

COVID-19da buyraklarda rivojlangan makro- va mikroskopik o'zgarishlar buyrak parenximasi va tomir-stromal elementlarida shikastlanish mexanizmini to'g'ri baholash va aniqlash imkonini beradi.

COVID-19da buyraklarning asoratlanish extimolini oldindan prognozlash orqali shikastlanish darajasini kamayishiga erishildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** shundan iboratki, qo'llanilgan nazariy yondashuvlar va usullar asosli, tadqiqot usullarining uslubiy to'g'riligi, materialning etarli miqdori, qo'llaniladigan usullarning zamonaviyligi, bir-birini to'ldiradiganligi, tadqiqot usullarining patomorfologik xususiyatlarini baholash. COVID-19 bilan kasallanishning klinik tarixi, yosh guruhlari soniga qarab morfologik, gistokimyoviy va statistik usullar, shuningdek mahalliy va xorijiy tajriba bilan taqqoslash, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy natijalari COVID-19da buyrak shikastlanishining makroskopik va mikroskopik tahlili, ularning rivojlanish mexanizmining xususiyatlari, shikastlanishning klinik va morfologik belgilari haqida keng ma'lumot beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular COVID-19 da buyraklarning klinik va morfologik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Andijon davlat tibbiyot instituti ekspert kengashining 2023 yil 27 iyundagi 06/17 -son xulosasiga ko'ra; birinchi ilmiy yangilik: COVID-19 infeksiyasida buyrak to'qimasida yuzaga keladigan morfologik va morfogenetik o'zgarishlar xarakterini o'rganish va kelajakda COVID-19 infeksiyasida asoratlanishi mumkin bo'lgan buyrak kasalliklarini prospektiv prognozini yoritilgan. Namangan viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 35-sonli buyrug'i, Farg'ona viloyati Patologik anatomiya byurosi

12.06.2023 y; 14-sonli buyrug‘i, Andijon viloyati Patologik anatomiya byurosi 14.06.2023 y; 40-sonli buyrug‘lari bilan amaliyotga joriy etildi. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: COVID-19 bilan xastalangan bemorlarni differensial diagnostika qilishda tavsiya qilinayotgan usullar patologik anatomiyaning ijro muddatini va difernsial diagnostika muddatini qisqarishiga olib kelganligi isbotlangan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Andijon viloyati axolisining 27,8% ni COVID-19 infeksiyasidan davolash maqsadida differensial tashxislash va patologoanatomik ijro muddatini qisqartirish o‘rtacha 20-25% ga qisqarib, xar bir bemordan 187500 so‘m miqdorida iqtisod qilinadi (O‘zSSV tomonidan berilgan ma‘lumot bo‘yicha davolash 2020 yil 23 martdan 30 sentyabrgacha xar bir bemor statsioanr palatadagi davolanish uchun kuniga 750 000 so‘mni tashkil etgan. Og‘ir axvoldagi bemorlarni davolash uchun sutkalik sarf xarajatlar 1,2 mln so‘mni tashkil etgan). Xulosa: Andijon viloyati shahar aholisida COVID-19 infeksiyasi bilan xastalangan bemorlarni maqsadli tekshirish va davolash paytida o‘rtacha xar bir bemor xisobiga 187500 so‘m byudjetdan tashqari mablag‘larni iqtisod qilish imkonini beradi. Ikkinchi ilmiy yangilik: COVID-19 ta‘sirida buyrakning yoysimon arteriyasi shikastlanishi, afferent arteriya devorida limfoid infiltratsiya, efferent arteriyada endoteliysining proliferatsiyasi, mushak qavati qalinlashishi, mikrotomirlarda limfotsitar tromb paydo bo‘lishi, kaptokcha kapillyarlar to‘rida podotsit va mezangiumning proliferatsiyasi aniqlandi. Namangan viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 35-sonli buyrug‘i, Farg‘ona viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 14-sonli buyrug‘i, Andijon viloyati Patologik anatomiya byurosi 14.06.2023 y; 40-sonli buyrug‘lari bilan amaliyotga joriy etildi. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: bemorlarda odindan buyrak kasalligi mavjud lekin klinik jihatdan biror bir beliglar bilan namoyon bo‘lmasdan, COVID-19 infeksiyasida ushbu kasalliklarni qo‘zishi davolash taktikasini keskin noto‘g‘ri amalga oshirilganligi va vafot etgan bemorlarni patologoanatomik tekshirish paytida aniqlangan COVID-19 infeksiyasi tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlardan, buyrak etishmovchiligini oldindan ehtiyot chorasi sifatida davolash profilaktika qilish, o‘tkir buyrak etishmov-chiligini kamaytirishga imkon berdi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: COVID-19 infeksiyasida buyrakda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni retrospektiv taxlil ma‘lumotlariga asoslanib, laborator tekshirish uchun tayinlangan taxlilar bitta bemorning 1 kunlik shifoxonadagi tekshiruvchi o‘rtacha amalga oshishi uchun o‘rtacha 121 ming so‘m, agar o‘rtacha 14 kundan 20 kungacha shifoxonada bo‘lsa, 1million 694 ming so‘mdan 2million 420 ming so‘mgacha byudjetdan iqtisod qilish imkonini bergan. Xulosa bitta bemorning 1 kunlik shifoxonada siydikni laborator taxili uchun o‘rtacha 121 ming so‘m sarf xarajat talab etsa, 14 kundan 20 kungacha shifoxonada davolansa o‘rtacha 1694000 so‘mdan 2420000 so‘mgacha byudjetdan iqtisod qilish imkonini bergan. Uchinchi ilmiy yangilik: SARS-CoV-2ning S-oqsili replikatsiyalanuvchi APF2-fermenti aksariyat buyrak kanalchalar bazal membranasi va oraliq moddasida joylashganligi sababli, COVID-19 infeksiyasi bilan xastalangan bemorlarda o‘tkir buyrak etishmovchiligiga olib kelishi

isbotlangan. Namangan viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 35-sonli buyrug‘i, Farg‘ona viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 14-sonli buyrug‘i, Andijon viloyati Patologik anatomiya byurosi 14.06.2023 y; 40-sonli buyrug‘lari bilan amaliyotga joriy etildi. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Andijon shahar aholisida COVID-19 infeksiyasi aniqlangan yoki klinik belgilar orqali shubxa qilinganda APF2-fermenti etishmovchiligini aniqlashda ommaviy PSR qilish orqali o‘tkir buyrak etishmovchiligini oldini olish imkonini bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: COVID-19 infeksiyasida kompleks tekshirishlar majmuasi tarkibida bo‘lmagan lekin o‘tkir buyrak etishmovchiligini asosiy markerlaridan bo‘lgan APF2-fermentining PSR qilish (20000 so‘mni tashkil etib) o‘rtacha bemor boshiga 101000 so‘mlik xarajatlarini qisqartirish va iqtisod qilish imkonini bergan. (O‘zSSV 2021 yil iyun oyi ma‘lumotiga ko‘ra 1 ta bemorni siydik taxlili uchun o‘rtacha 121000 so‘mni tashkil qiladi). Xulosa: o‘rtacha xar bir COVID-19 infeksiyasi bilan xastalangan bemorni PSR qilish xisobiga byudjet mablag‘laridan bemor boshiga 110 000 so‘mdan byudjetdan tashqari mablag‘larni iqtisod qilish imkonini bergan. To‘rtinchi ilmiy yangilik: COVID-19 infekviyasida buyrak to‘qimasi po‘stloq qavat va mag‘iz qavatidagi funksional faol tuzilmalarning yoshga doir shikastlanish o‘lim ko‘rsatkichlari eng ko‘p 40-59 yoshda bo‘lishi va sabab qilib, buyrak ko‘ptokchalari va proksimal kanalchalarining hajmiy kattlashganligi, qon tomirlar devoridagi xujayralarning son jihatdan oshganligi va morfofunksional majrux xolatni yuzaga kelishi morfometrik tahlil natijalari bilan tasdiqlanib tashxislash algoritmi ishlab chiqilgan. Namangan viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 35-sonli buyrug‘i, Farg‘ona viloyati Patologik anatomiya byurosi 12.06.2023 y; 14-sonli buyrug‘i, Andijon viloyati Patologik anatomiya byurosi 14.06.2023 y; 40-sonli buyrug‘lari bilan amaliyotga joriy etildi. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: quyidagilardan iborat: Andijon shahar aholisida COVID-19 infeksiyasidan xastalangan bemorlarda o‘tkir buyrak etishmovchiligini yuzaga kelishini oldini olish va o‘lim ko‘rsatkichi darajasini kamaytirish maqsadida, ommaviy PSR qilish va algoritmda keltirilgan ma‘lumotlar ketma ketligiga asoslangan tashxislash bosqichlarini tadbiq etish, buyragida oldindan fon kasalligi bor bo‘lgan va aloxida e‘tiborli bo‘lgan xomilador ayollardagi buyrak kasalligi bor bo‘lgan bemorlarga tadbiq etishlik COVID-19 infeksiyasida o‘lim ko‘rsatkichini keskin darajada 2021 yil avgust oyi misolida kamayganligini ko‘rsatgan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Andijon shahar aholisida COVID-19 infeksiyasi bilan statsionar davolash muddati o‘rtacha 14-21 kun bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yil 20 avgustdan keyin ushbu ko‘rsatkichlar 2 barobarga qisqarganligi kuzatildi. 2021 yil avgust oyi bo‘yicha COVID-19 infeksiyasidan davolanayotgan bemorlarga sutkalik mablag‘ o‘rtacha 1150000 so‘mni tashkil etib, 16 mln 100000 so‘mdan 24 mln 150000 ming so‘mgacha davlat byudjetidan sarflangan. Tadbiq etilgan tashxislash algoritmi va usullardan keyin (2021 yil 10 iyuldagi O‘zRPAM direktori ishtirokidagi COVID-19 bosh shtabi navbatdagi yig‘ilishidagi tavsiyasi va OAV orqali bergan ma‘lumotlarga asoslangan chiqishlarida) statsionarda COVID-19 infeksiyasi bilan davolanish muddati o‘rtacha 7-10 kungacha

qisqarganligi va bu xolat davlat byudjetidan o'rtacha 8 mln 50000 so'mdan 12 mln 75000 so'mni davlat byudjetidan iqtisod qilinishiga olib kelgan. **Xulosa:** Andijon violiyatida COVID-19 bilan xastalanib davolanayotgan bemorlarda davolanish muddati o'rtacha 7-10 kungacha qisqarganligi va bu xolat davlat byudjetidan o'rtacha 8 mln 50000 so'mdan 12 mln 75000 so'mni davlat byudjetidan iqtisod qilish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, adabiyotlar sharhi, beshta xususiy bob, xotima, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan va 120 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish qismida** dissertatsiya ishining dolzarbligi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob'ekti va predmeti aniqlangan, dissertatsiya tadqiqotining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, shuningdek dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar haqida, dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**COVID-19 infeksiyasida buyraklarning shikastlanish patogenezini, patomorfologik o'zgarishlari haqidagi ilmiy-amaliy ma'lumotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy adabiyotlar asosida COVID-19 infeksiyasida buyrak to'qimasining morfologik va morfometrik o'zgarishlari muammosining hozirgi holati bo'yicha adabiyotlar sharhi berilgan. COVID-19 etiologiyasi va patogenezini rivojlanish mexanizmi, COVID-19 da buyraklarning morfologiyasi haqida ilmiy-amaliy ma'lumotlar tahlil qilingan holda keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bemor kontingentining xususiyatlari va tadqiqot usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobda tekshirishning material va usullari bayon etilgan bo'lib, COVID-19 tashxisi klinik-morfologik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan bemorlar avtopsiyasida buyrak to'qimasini tadqiqotimizga ajratib oldik. Aniqlangan o'zgarishlarni solishtirish va ishonchligini tasdiqlash uchun nazorat guruhi sifatida o'tkir miokard infarktidan vafot etgan bemorlar avtopsiyasida buyrak to'qimalari olindi. Tekshirish uchun material 2021 yilda COVID-19 tashxisidan vafot etgan RPAM "Onalar va bolalar patologiyasi" bo'limi amaliyotida avtopsiyadan o'tkazilgan murdalarning klinik-morfologik ma'lumotlari olindi.

Dissertatsiyaning materiali sifatida RPAM “Onalar va bolalar patologiyasi” bo‘limida 2021 yilning iyun, iyul, avgust, sentyabr oylari davomida autopsiya tekshiruvidan o‘tgan, COVID-19 tashxisi klinik-morfologik ma’lumotlar asosida tasdiqlangan 44 ta holat olindi. Tadqiqotni amalga oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanildi: COVID-19da vafot etgan bemorlarning klinik-laborator ma’lumotlarini tahlil qilish; buyrak to‘qimasini gematoksilin-eozin bo‘yog‘idan foydalanib gistologik tekshiruv o‘tkazish; buyrak to‘qimasidagi oraliq moddalarda nordon glikozaminoglikanlarni tekshirish uchun gistokimyoviy usullardan bo‘lgan alsian ko‘kiga bo‘yash, shu bilan birga buyrak to‘qimasidagi kollagen tolalarning kanchalik darajada o‘sganligini aniqlash uchun Van Gizon usulida foydalandi.

Har bir holatda tibbiy hujjatlari (bemorlarning kasallik tarixlari) ga ko‘ra, anamnez, bemorlarning shikoyatlarining tabiati, ularning paydo bo‘lish vaqti va dinamikasi, yuzaga kelgan og‘irlashuvlari, o‘lim sabablari, batafsil o‘rganildi. Bemorlarning funksional va unga parallel morfologik o‘zgarishlari baholandi. Bemorlardagi surunkali kasalliklariga hamda koronavirus infeksiyasi bilan bir vaqtda kuzatilgan boshqa somatik kasalliklarga, ularga bog‘lik holda kasallik kechishi va o‘imning bevosita sabablari yuzaga kelishiga e’tibor qaratildi.

Buyrak to‘qimasini gematoksilin-eozin usulidan foydalanib gistologik usulda o‘rganish.

10% li neytrallangan formalinda 72 soat davomida qotirilgan buyrak to‘qimalari bo‘laklari oqar suvda 3-4 soat yuviladi, keyin 70, 80, 90, 96, 100 %li spirtlarda va xloroformda suvsizlantirildi va mum qo‘shilgan parafin quyilib, bloklar tayyorlandi. Kesmalardagi parafin 57°C termostatda ksilol yordamida eritilib olib tashlandi, keyin buyrak to‘qimasining umumiy gistologik holatini o‘rganish uchun gematoksilin-eozin eritmalarida bo‘yaladi. Buyrak to‘qimasini gistokimyoviy usulda o‘rganildi. Parafinli blokchalardan rotatsion mikrotomlarda qalinligi 3-5mkm bo‘lgan kesmalar tayyorlandi. Kesmalardagi parafin 57°C termostatda ksilol yordamida eritilib olib tashlandi, keyin buyrak to‘qimasining umumiy gistologik holatini o‘rganish uchun gistokimyoviy bo‘yoqlardan foydalandik. Aynan ushbu ishimizda ShIff va Van-Gizon usulidan foydalandik. Bu usulda ShIff bo‘yog‘i tarkibida nordon mukopolisaxaridlarni moviy ko‘k rangga bo‘yalishi musbat reaksiya deb qabul qilinadi. Van Gizon usulida esa, nordon pikrofussin asosan kollagen tolalarni to‘q qizil rangga bo‘yashi orqali to‘qimada kollagen tolalarning shakllanganligini ko‘rsatadi. 20 daqiqadan keyin disstillangan suv bilan yuviladi. Bo‘yalgan preparat yuzalari qoplovchi oyna bilan yopiladi. Natijaning ishonchiligini tekshirish uchun preparat mikroskopda ko‘rilganda yuqoridagi bo‘yoqlar bilan qo‘yilgan reaksiyalarda bioptatlarda alsian ko‘kida moviy ko‘k rangda, Van Gizonda kollagen tolalar to‘q qizil rangda aniqlanadi. Buyrak to‘qimasi po‘stloq va mag‘iz qavati maydonlarining nisbiy kenglik o‘lchamlarini aniqlash uchun gistometriya usulidan foydalanildi.

Buyrak to‘qimasi strukturalarini morfometrik tekshirish maxsus gistoskan dasturi bilan ta’minlangan NanoZoomer REF C13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN skaneri (Yaponiyada ishlab chiqarilgan 2021 yil) orqali amalga oshirildi.

Bu usulda maxsus dasturiy ta'minotlar orqali inson omilini chetlab o'tish orqali aniqlik darajasi 96% dan yuqori bo'lgan hujayralarni sanash, hujayralararo bo'shliqlar maydonini ko'rsatish, tolali tuzilmalarning tabiati va o'lchamini aniq bir sonlarda mkm va % larda ko'rsatadigan texnik jihoz hisoblanadi. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar ishonchli bo'lishi uchun, materialning har bir guruhidan gistologik preparatlarning 8-10 ta obyektlaridan olingan tasvirlarda nuqtalar keltirildi va o'rtachasi olindi.

Morfometrik tekshirish uchun COVID-19 tashhisi tasdiqlangan va avtopsiyada olingan buyrak to'qimalaridan tayyorlangan kesmalarni 200x va 400x kattalikda bir ko'rish maydonidagi hujayra va qon tomirlar perimetrlari bilan NanoZoomer (REF C13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN) da skaner qilindi. Materiallardan mikrotasvirlar olindi. Gistokimyoviy tekshirishda Van Gizon bo'yog'i yordamida kollagen tolalarga boy bo'lgan va alsian ko'ki orqali bo'yalgan nordon mukopolisaxaridlarga boy bo'lgan o'choqlarning to'qimaga nisbatan egallagan maydoni va boshqa kattalikdagi ko'rsatkichlari olindi. Asosan faol bo'yalgan sohalardagi hujayralar va tolali tuzilmalarning xos rangda bo'lishi morfometriya jarayonida o'lgan kattaliklarni aniq bir chegaradagi traektoriyasini raqamlar orqali ifodalash uchun asos qilib olindi. Morfometrik ko'rsatkichlarni aniqlash mazkur patologiyada hujayralar joylashuvining o'zgarishi kasallikning og'irlik darajasini aniqlashga zamin yaratadi.

Buyrak to'qimasining COVID-19 yuzaga kelgan o'zgarishlarini ifodalashda, qon tomir, buyrak ko'ptokchalari, proksimal va distal kanalchalarning chegaralari, diametri va egallagan maydonlarining qalinlik ko'rsatkichlari olindi. COVID-19 da buyrakning parenximatoz komponentlari sohasidagi funksional faol maydonlarni kompression deformatsiyalanish ko'rsatkichlarini belgilab beradigan omil hisoblanadi. Demak, aynan buyrak to'qimasidagi morfofunksional faol maydonlarining tuzilmalarini o'lchashda ham yuqoridagicha, 5-7 mkm da olingan kesmalar 20x obyektivda skaner qilindi. Olingan mikrotasvirlarni morfometrik dasturiy ko'rsatkichlar orqali qalinlik darajasi mkm va foizlarda ifodalandi.

O'rganilayotgan ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik miqdorini (M), o'rtacha kvadratik og'ishlarni ( $\sigma^2$ ), o'rtacha standart xatoliklarni (m), nisbiy kattaliklarni (chastota,%) hisobga olgan statistikaning variatsion parametrlari va noparametrik usullaridan foydalanildi. O'rtacha kattaliklarni taqqoslashda olingan o'lchamlarning statistik ahamiyati general dispersiya (G'-Fisher mezon) va tarqalishning me'yorlarini (ekssess mezon bo'yicha) tekshirishda xatoliklar ehtimolligi (R)ni hisoblagan holda Styudenta (t) mezon bo'yicha aniqlandi. Qo'lga kiritilgan miqdoriy ma'lumotlarning o'rtacha arifmetik kattaligi va o'rtacha kvadrat xatolik miqdori, ishonchlilik ko'rsatkichini ( $R < 0,05$ ,  $R < 0,001$ ) aniqlash maqsadida statistik ishlov berildi. Sifatliy kattaliklar uchun statistik ahamiyati  $\chi^2$  va z - mezonlari yordamida hisoblandi.

Olingan natijalar tahlili variatsion qator statistik tahlilning umumiy qabul qilingan usulida o'tkazildi va uning ko'rsatkichlari intensivligi quyidagi formulalar yordamida aniqlandi:

O'rtacha arifmetik miqdor (M):

(1), bu erda:

M – o‘rtacha arifmetik miqdor,

n – variatsion qatordagi kuzatuvlar soni;

X – alohida kuzatuvlar qiymati;

i – kuzatuvlar raqami;

va standart xatoliklar (yom):

(2), bu erda:

yom – standart xatolik,

P – umumiy tanlanganlar orasidagi bir turni kuzatishlar sonining hissasini ko‘rsatuvchi guruhlardagi intensiv ko‘rsatkich.

$$\sigma = \sqrt{((x^1 - M) + \dots + (x^n - M)) / (n - 1)}$$

bu erda:

$\sigma$  - standart og‘ish

$x^1$  – alohida kuzatuvlar qiymati;

M – o‘rtacha arifmetik;

n – variatsion qatordagi kuzatuvlar soni

O‘rganilayotgan belgilar bo‘yicha mos kelish darajasi 5 % dan ( $R < 0,05$ ) oshmaganida natijalar ishonchli hisoblanadi.

#### **Tadqiqot natijalarini statistik tahlili.**

Statistik tahlil MS Office Excel 2007 va STATISTICA for Windows 10 amaliy dastur paketida tadqiqot bo‘yicha statistik tahlil usullariga muvofiq amalga oshirildi. Farqlarning ahamiyatlilik darajasidan foydalanildi:  $p < 0,05$ . Tahlil uchun tanlab olinganlar me‘yor taqsimlanganda Styudent t-mezonidan foydalaniladi: guruhlar ichidagi va aholi orasidagi dinamikadagi o‘zgarishlar o‘rganiladi. Korrelyatsion tahlil o‘tkazilib, me‘yoriy taqsimotlarda Pirson koeffitsenti ishlatildi; taqsimot uchun Spirman koeffitsenti ishlatildi. Natijalar Myom sifatida taqdim etildi. Tahlil natijalarini va birlamchi morfologik ma’lumotlarni taqdim qilish uchun Microsoft Office diagrammalaridan va STATISTICA for Windows tizimi grafik imkoniyatlaridan keng foydalanildi. Farqlarning ahamiyatlilik darajasi:  $p < 0,05$ . Ishlatilgan barcha kompleks mezonlar natijalari asosida ishonchlilik farqlar bor yoki yo‘qligi haqida aniq xulosalar keltirildi.

COVID-19 tashhisi bilan vafot etganlar buyragining morfometrik jihatlarining o‘ziga xosligi, aksariyat tomirga aloqador bo‘lgan o‘zgarishlarning yuzaga kelishi va hujayralarda massiv distrofik va nekrobiotik o‘zgarishlarning ustunligi bilan kechishi hisoblanadi. COVID-19 infeksiyasida aksariyat qon tomirlarning kengayishi va to‘laqonligi, tomir o‘tkazuvchanligini oshishi, oraliq to‘qima komponentlariga plazmatik shimilishning rivojlanishi, aksariyat epiteliy hujayralarining diffuz oziqlanishini izdan chiqarib sitoplazmasida oqsilli va kam hollarda yog‘li distrofiyalarning rivojlanishi bilan yuzaga keladi. Bu hajmiy o‘zgarishlar to‘qima va hujayralarning vazn jihatdan ortishi va meyoriy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan kattaliklarning oshishi bilan davom etadi. Morfometrik tekshirishlar orqali aksariyat buyrak to‘qimasining qon tomir devori kengayishi, koptokcha va kanalchalarning hajman kattalashishi, hujayra birliklarini raqamlarda keltirilgan kattaliklarini ham oshishiga olib kelganligi aniqlandi.

Oqibatda, buyrakning parenximatoz va mezenximal komponentlarining o‘zaro nisbati nazorat guruhiga nisbatan turlicha o‘lchamda bo‘lganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlashda «Statistica for Windows 10,0» personal kompyuterining amaliy dastur paketidan foydalanildi.

Dissertatsiyaning «**Koronavirus infeksiyasidagi (COVID-19) klinik-anamnestik ma’lumotlari tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobi, kasallik tarixi ma’lumotlari tahlili ko‘rsatishicha, COVID-19 kasalligining davomiyligi quyidagicha dinamikaga ega bo‘ldi (1-jadval). Biz o‘rgangan materialimizda COVID-19 kasalligi klinik simptomlari paydo bo‘lishining birinchi davrida 10 nafar bemor (22,7%) vafot etgan, ularning deyarli yarmini 60-79 yoshgacha bo‘lgan bemorlar tashkil qildi. Demak, yoshi katta bemorlarda bu infeksiyadan vafot etishga sabab, ularda yurak-tomir, nafas va buyrak-tanosil tizimlarini surunkali kasalliklarining mavjudligi hisoblandi. Koronavirus infeksiyasining ikkinchi davri, ya’ni yallig‘lanish jarayonining avj olish davrida biz o‘rgangan kasallardan 14 (31,8% ) nafari vafot etganligi aniqlandi. Bu guruhda ham o‘lganlarning asosiy qismi yoshi kattalarga to‘g‘ri keldi. Kasallikning uchinchi, asoratlar berish davrida ham o‘lganlar soni ko‘pchilikni tashkil qildi (15 nafar, 34%). COVIDdan keyingi sindromlar rivojlanish davrida o‘lim ko‘rsatgichiga nisbatan kam, ya’ni 5 nafarni (11,3%) tashkil qildi.

#### 1-jadval

#### COVID-19 kasalligini davomiyligi bo‘yicha bemorlarning yosh guruhlarida taqsimlanishi

Yosh	Kasallik davomiyligi				Jami:
	1-5 kun, kasallik simptomlari paydo bo‘lishi	6-15 kun, yallig‘lanish ning kuchayishi	16-29 kun, asoratlar berish	30-45 kun, ikkilamchi o‘zgarishlar	
20-29	-	3	2	-	5 (11,3%)
30-39	2	2	3	-	7 (15,9%)
40-49	2	1	3	1	7 (15,9%)
50-59	1	3	2	2	8 (18,18%)
60-69	3	3	2	2	10 (22,7%)
70 ≤	2	2	3	-	7 (15,9%)
<b>Jami</b>	10 (22,7%)	14 (31,8%)	15 (34%)	5 (11,3%)	44 (100%)

COVID-19 kasalligining yuqori ko‘rsatilgan klinik davrlarida vafot etganlarda o‘limning bevosita sababi sifatida quyidagilar aniqlandi. O‘lim sabablaridan o‘tkir buyrak yetishmovchiligi (31,8%) birinchi o‘rinni egalladi. Undan keyingi o‘rinda DVS sindromi turganligi aniqlandi (27,2%). Keyingi eng ahamiyatli o‘lim sabablaridan biri sifatida o‘pkaning transudatli, ba’zida gemorragik shish (20,4%) aniqlandi. Kam hollarda bo‘lsada koronavirusli kasalliklarda bevosita o‘lim sababi sifatida bosh miya shishi (4,5%), ikki tomonlama pnevmotoraks (2,7%) hamda splenomegaliya (4,5%) holatlari kuzatilgani aniqlandi (2-jadval).

**2-jadval.**

**O'limga bevosita sabab bo'lgan asoratlarning uchrash darajasi**

<b>№</b>	<b>Kasallik turi</b>	<b>Soni</b>	<b>Foizi</b>
1	O'pka arteriyalarining tromboemboliyasi	4	9 %
2	Nekrotik nefroz	14	31,8 %
3	O'pka shishi	9	20,4 %
4	Miya shishi	2	4,5 %
5	Ikki tomonlama pnevmotoraks	1	2,7 %
6	DVS sindromi	12	27,2 %
7	Splenomegaliya	2	4,5 %
<b>Jami:</b>		<b>44</b>	<b>100 %</b>

COVID-19 kasalligidan o'lganlarning klinik-morfologik tahlili ko'rsatishicha, organizmning turli tizim va a'zolarining kasallik bilan zararlanishini o'rganish shuni ko'rsatdiki, barchasida o'pkalarni zararlanganligi hamda unga qo'shimcha holda surunkali yurak-tomir tizim kasalliklari, surunkali nafas tizim kasalliklari, me'da-ichak trakti kasalliklari, endokrin kasalliklar mavjudligi aniqlandi.

**3-jadval.**

**Ichki a'zolari somatik kasalliklarining uchrash darajasi**

<b>№</b>	<b>Kasalliklar</b>	<b>20-29</b>	<b>30-39</b>	<b>40-49</b>	<b>50-59</b>	<b>60-69</b>	<b>70 ≤</b>	<b>Jami</b>
1	Gipertoniya kasalligi		1 (2,2%)	2 (4,4%)	2 (4,4%)	3 (6,8%)	4 (9%)	12 (27,2%)
2	Yurak ishemik kasalliklari					4 (9%)	7 (15,9%)	11 (25%)
3	Kardiomiopatiyalar			1 (2,2%)			2 (4,4%)	3 (6,8%)
4	Revmatizm				2 (4,4%)	1 (2,2%)		3 (6,8%)
5	Bronxial astma			1 (2,2%)		1 (2,2%)		2 (4,4%)
6	O'pkaning surunkali nospisifik kasalliklari		1 (2,2%)		2 (4,4%)		2 (4,4%)	5 (11,3%)
7	O'pka sili		2 (4,4%)		1 (2,2%)			3 (6,8%)
8	Me'da yara kasalligi	1 (2,2%)	1 (2,2%)	1 (2,2%)	1 (2,2%)	1 (2,2%)	1 (2,2%)	4 (9%)
9	Surunkali gepatit		1 (2,2%)			3 (6,8%)		4 (9%)
10	Nospetsifik yarali kolit			2 (4,4%)	1 (2,2%)	2 (4,4%)		5 (11,3%)
11	Qandli diabet		2 (4,4%)	2 (4,4%)	1 (2,2%)	1 (2,2%)	2 (4,4%)	8 (18,1%)
12	Bo'qoqlar	1 (2,2%)	1 (2,2%)	2 (4,4%)	1 (2,2%)			5 (11,3%)
13	Semizlik		3 (6,8%)	4 (9%)	1 (2,2%)	2 (4,4%)		9 (20,4%)


Yurak-tomir tizim kasalliklari koronavirusli infeksiyani og'irlashtiruvchi xastalik sifatida boshqa tizim kasalliklariga nisbatan ko'p uchraganligi kuzatildi. Ulardan gipertoniya kasalligi va yurak ishemik kasalligi, asosan, 60 yoshdan oshganlarda ko'p uchraganligi tasdiqlandi. Ayrim hollarda kardiomiopatiya va revmatizm kasalliklari kam kuzatilib, ularning tanotogenezdagi o'zni yuqori

bo'lganligi qayd qilindi. Revmatizm kasalligiga xos bo'lgan revmatik so'galli endokardit kasalligining koronavirus ta'sirida avj olib, og'irlashganligi sababli tromboembolik sindrom kabi asoratlar rivojlanib, kasallar nobud bo'lganligi kuzatildi. Nafas tizimi kasalliklaridan O'SNK va o'pkalarni sil kasalliklari koronavirusli pnevmoniyani og'irlashtirib, bronx-pulmonal asoratlar rivojlanishidan kasallar nobud bo'lganligi tasdiqlandi. Endokrin tizim va metabolik kasalliklardan asosiy o'rinni qandli diabet va semizlik egalladi. Ayniqsa, qandli diabet kasalligi fonida rivojlangan koronavirus infeksiyasi tez va og'ir holatda davom etib, qisqa vaqt oralig'ida terminal holatdagi asoratlar rivojlantirgani kuzatildi. Semizlik va organizmdagi metabolik sindrom holatlari ham koronavirusli infeksiyaga fon kasaligi sifatida uni og'irlashuviga sabab bo'lganligi aniqlandi (3-jadval).


Dissertatsiyaning «**Xususiy tekshiruv natijalari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida COVID-19 kasalligida buyrak arteriyalari va mikrotomirlarida rivojlanadigan patomorfologik o'zgarishlari, COVID-19 kasalligida buyrak egri-bugri kanalchalarning patomorfologiyasi, gistokimyoviy tekshirish bo'yicha morfologik o'zgarishlar, COVID-19 da buyrak to'qimasini morfometrik ko'satkichlari taqdim etilgan. Buyrak to'qimasining asosiy morfologik o'zgarishlari quyidagilardan iborat: COVID-19 infeksiyasida buyrakning yo'g'on arteriyalaridan po'stloq va mag'iz qavatlari orasidagi yoysimon arteriya ko'proq shikastlanishi, bu arteriyalar devorlarining barcha qavatlari diffuz holda shishiga va dezorganizatsiyasiga uchraganligi, intimasida endoteliyning deskvamatsiyasi va unga plazma oqsillari va eritrotsitlarning adgeziyalanishi kuzatildi.

Buyrak ko'ptokchalariga kiruvchi va chiquvchi arteriyalarda bir-biridan farq qiluvchi o'zgarishlar rivojlanganligi, jumladan afferent arteriya devorida intimasining hujayralari gipertrofiyalanishi va limfo-gistiotsitar infiltrat paydo bo'lishi hisobiga qalinlashganligi, efferent arteriya devorida endoteliysining proliferatsiyalanishi, mushak qavatining qalinlashishi va undagi mushak hujayralarining betartib joylanishi kuzatildi.


Buyrak ko'ptokchalari kapillyarlar to'ri mikrotomirlari ayrim hollarda keskin kengayganligi, to'laqonligi, boshqa hollarda spazmga uchraganligi, kapillyarning bazal membranasi mukoid bo'kishga uchrab, qalinlashganligi, endoteliy, podotsit va mezangium hujayralari proliferativ faollashgan holatdaligi, kapillyarlar to'ri bir holatda kengayib, yiriklashgan, boshqa holatda kollapslanib, bujmayganligi aniqlandi (1 va 2- rasmlarga qarang). Buyrak po'stloq qavat interstitsiyasidagi peritubulyar arteriya ko'proq shikastlanganligi, uning bo'shlig'ida obturatsiyalovchi tromb, bitta tomir ichida har xil kattalikdagi bir nechta tromb bo'laklari paydo bo'lganligi, atrofidagi vena tomirlar kuchli to'laqonlik daraja ekanligi kuzatildi. Bemor organizmida mavjud qandli diabet kasalligi fonida rivojlangan COVID-19 infeksiyasidan vafot etgan bemor buyraklari morfologik jihatdan tekshirilganda quyidagilar aniqlandi.




1-rasm. Buyrakga kiruvchi arteriya devori, intimasi tuzilmalarining yuzaki dezorganizatsiyasi (1). Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.



2-rasm. Buyrak ko'ptokchalarga kiruvchi arteriya, intima qavatida shish va limfo-gistiotsitar infiltratli yallig'lanish rivojlanishi (1). Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.



3-rasm. Efferent arteriyaning peritubulyar tarmog'i, bo'shlig'i tromb bilan to'liq obturatsiyalanishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.




4-rasm. Efferent arteriyaning peritubulyar tarmog'i, bo'shlig'ida bir-nechta tromb paydo bo'lishi. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.


Buyraklar to'qimasidagi efferent arteriya tarmog'i bo'lgan peritubulyar arteriya bo'shlig'ida uning devoriga yopishgan bir-nechta tromb bo'laklari paydo bo'lganligi aniqlandi. Tromb bo'laklarining biri nisbatan yirik, ikkinchisi kichikroq, yana biri mayda bo'lakchadan iboratligi aniqlandi va ularning barchasi arteriya devoriga yopishganligi topildi. Ushbu arteriya atrofidagi vena qon tomirlarining barchasi keskin kengayganligi va to'laqonligi, ayrimlarining atrofiga diaperez qon quyilganligi kuzatildi (3 va 4- rasmlarga qarang).

Buyrakning egri-bugri kanalchalarida birlamchi siydik reabsorbsiyaga uchraydi, asosan proksimal kanalchada moddalar qayta so'riladi, jumladan glyukoza, aminokislotalar, vitaminlar, tuzlar va suv, jami reabsorbsiya 85% amalga oshadi. Distal kanalchalarda reabsorbsiyaning qolgan qismi (15%), ya'ni natriy ionlari va kationlar qayta so'riladi. Shuning uchun, proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysi yirikroq, kanalcha bo'shlig'i tomon yuzasida mikrovorsinkalari mavjud, kanalcha bo'shlig'i tor. Distal kanalchalar epiteliysi o'lchamlari nisbatan kichik, bo'shlig'i keng hisoblanadi. Moddalar almashinuvining hajmiga va turlariga qarab xulosa qilish mumkinki, egri-bugri kanalchalarning proksimal qismida moddalar almashinuvi ancha kuchli va hajmi katta bo'lganligidan kasalliklar ta'sirida bu kanalchalar epiteliysida distrofik va nekrotik o'zgarishlar ko'proq rivojlanadi. COVID-19 infeksiyasida buyrakning barcha qismi, jumladan ko'ptokchalari ham shikastlanadi, natijada ko'ptokcha kapillyarlar to'rida filtratsiya buzilib, birlamchi siydik tarkibiga oqsillar ko'proq

o'tishi natijasida, ko'ptokcha bo'shlig'ida eozinofilli qumoq-qumoq shakldagi oqsilli modda to'planganligi kuzatiladi.




5-rasm. Buyrak po'stloq qavati, kanalchalar epiteliysining kuchli distrofiya va shishga uchraganligidan hajmi kengaygan, epiteliysi destruksiyalangan (1). Egri bugri kanalchalar bo'shliqlarida to'rsimon oqsil tuzilmalari aniqlanadi (2).  
Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.




6-rasm. Buyrak po'stloq qavati, ko'ptokchi bo'shlig'ida oqsilli moddaning to'planishi (1), kanalchalar oraliq to'qima shishi hisobiga kollapslanishi (2).  
Bo'yoq: G-E. Kat: 10x40.

